TABAQALASHTIRILGAN YONDOSHUV ASOSIDA GOMOGEN GURUHLARDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

Akobirova Madina Bo’ronovna

BuxDPI “Texnologik ta’lim” kafedrasi

o‘qituvchisi ,tayanch doktoranti (PhD)

akobirovamadina20@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabaqalashtirilgan yondoshuv orqali talabalarni qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlari orqali har bir talabada yetarli bilim, ko’nikma va malakani shakllantitrishga erishish, talabalarni tahlil qilish, ularni qobiliyatiga ko’ra tabaqalarga ajratish, hamda amaliy mashg’ulotlarni tabaqalashgan yondashuv asosida o’quv –metodik ta’minotni ishlab chiqish va ta’lim jarayonini tashkil etish bayon etilgan.

Tayanch iboralar: Tabaqalashgan yondashuv, ko’nikma, malaka, konstruksiyalash, gomogen guruh, evristik metod, tarmoqli rejalashtirish.

Abstract: This article describes how to achieve the formation of sufficient knowledge, skills, and abilities in students through their capabilities and individual psychological characteristics using a differentiated approach. It analyzes students, categorizes them into groups based on their abilities, and develops educational and methodological support while organizing the educational process based on the differentiated approach.

Keywords: Differentiated approach, ability, skill, construction, homogeneous group, heuristic method, network planning.

Аннотация: В данной статье описывается, как с помощью дифференцированного подхода достичь формирования у студентов достаточных знаний, умений и навыков через их способности и индивидуальные психологические характеристики, анализировать студентов, разделять их на группы в зависимости от способностей, а также разрабатывать учебно-методическое обеспечение и организовывать образовательный процесс на основе дифференцированного подхода.

Ключевые слова: Дифференцированный подход, умение, навык, конструирование, однородная группа, эвристический метод, сетевое планирование.

Tabaqalashtirilgan yondoshuvni amalga oshirishdan maqsad talabalarni qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlariga ko’ra tabaqalashtirish orqali har bir talabadan yetarli bilim, ko’nikma va malakani shakllantitrishga erishish

hisoblanadi. Vazifalarga guruhdagi talabalarni tahlil qilish, ularni qobiliyatiga ko'ra tabaqalariga ajratish, ta'lim muassasidagi sharoitlarni o'rganish, o'quv –metodik ta'minotni ishlab chiqish va ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazish kiritildi.

Tabaqalashtirilgan yondashuvda har bir talabaga tanlash imkoniyatining berilishi natijasida mustaqil faoliyat yuritishi uchun asos bo'lib, o'z kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni o'zi boshqara olish imkonini beradi. Tabaqalashtirishda talabalarning qiziqishlari, xohish-istaklari, psixofiziologik xususiyatlari, o'zlashtirish imkoniyatlari, qobiliyatlari va shaxsiy imkoniyatlarini inobatga olinishi lozim.

I-GOMOGEN guruh uchun topshiriq

A. O'tkazma yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

B. Yarim qaytarma yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

II-GOMOGEN guruh uchun topshiriq

A. Tik yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

B. Yassi yotadigan yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

III-GOMOGEN guruh uchun topshiriq

A. Yaxlit yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

B. Yaxlit til yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

n…-GOMOGEN guruh uchun topshiriq


A. Yaxlit ko'tarmali qaytarma yoqa konstruksiyasini qurish va modellashtirish.

B. Kiyimda bezak elementlarini modellashtirish texnologiyasi;

Bu yerda:

B vaqt- jarayonning boshlanish vaqti

T vaqt- jarayonning tugash vaqti



"Brainstorming" (Miya hujumi) metodi

“Miya hujumi” (ingl. “brainstorming”, “brain” – miya, fikr, “storm” – hujum, jang) metodi. Ushbu metoddan maqsad, mumkin qadar ko‘p miqdordagi g‘oyalarni yig‘ish, talabalarni ayni bir xil fikrlash inersiyasidan holi qilish, ijodiy vazifalarni yechish jarayonida dastlab paydo bo‘lgan fikrlarni yengishdir. Bu metod A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo‘lib, ijodiy faollik asosida muammoni hal qilishning operativ usulidir. Bu metodning asosiy tamoyili va qoidasi bahs ishtirokchilari ishlab chiqqan g‘oyalar tanqidini mutlaq taqiqlash, har qanday luqma va hazil-mutoyibani rag‘batlantirishdir.

Bu metoddan foydalanishning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘qituvchi – mashg‘ulot rahbariga bog‘liq. Ishtirokchilar 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga bo‘linadi va har bir guruh hal qilinadigan ijodiy vazifa va muammo bo‘yicha15 minut davomida ishlaydi. Shundan so‘ng har bir guruh vakili o‘z guruhlarida ishlab chiqilgan g‘oya haqida axborot beradilar va o‘qituvchirahbarligida jamoa bo‘lib unga

baho beradilar. Ulardan eng yaxshilari va betakrorlari tanlab olinadi.

Metodning asosiy qoidalari:

Eng ko‘p sonda takliflar olish.

Yangicha fikrni tabriklash va fikr qanchalik odatdan tashqari bo‘lsa, shuncha yaxshi bo‘lishini hisobga olish.

G‘oyalarni shakllantirishga xalal beradigan qanday bo‘lmasin biror mulohaza va tanqidiy fikrlarni bildirmaslik.

Asosiy maqsad sifat emas miqdor ekanligini yodda tutish.

G‘oyalarni kombinatsiyalash va rivojlantirish.

Bu metod ta’lim oluvchilarga fikrlash, o‘z fikri va nuqtai-nazarini ifodalash, uni isbotlash, himoya qilish, har qanday vaziyatda eng ma’qul yechimni topish, muloqot olib borish, himoya qilinayotgan nuqtai-nazarning to‘g‘riligiga opponentlarni ishontirishga o‘rgatadi.

“Evristik metod”

“Evristik metod” ta’lim jarayonida tafakkur mustaqilligi nisbatan yuqori bo‘lishini ta’minlaydi, ta’lim oluvchilarda mustaqil mulohazalar uyg‘otadi, muhokama qilishga, xulosa chiqarishga undaydi. Bu metodning asosiy shakli muhokama hisoblanadi. Suhbat metodida tarbiyachi ko‘proq sukut saqlashi, eshitishi talab qilinsa, evristik metodda adabiy haqiqatlar tarbiyachi bilan fikr almashishlar, birgalikdagi tadqiqot va kuzatishlar orqali o‘zlashtiriladi. Evristik metod ta’lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, o‘z holicha ishlash va yaratish xususiyatlarini oshiradi.

Evristik ta’lim metodini qo‘llashda o‘qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O‘qituvchi bilimlarning bir qismini talabalarga ma’lum qiladi, qolganini esa talabalar bilish topshiriqlarini yechish

jarayonida savollariga javoblar topish asosida o‘zlashtiradi, o‘zlari bilimlarni mustaqil egallashadi.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda talabalarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.

Talabalarda fanning turli sohalaridan iloji boricha kengroq ma’lumotlarni o‘zlashtirishi bilan birga ularda mustaqillik, hayotga ijodiy munosabat malakalarini tarkib toptirishi kerak. Ana shu maqsadda o‘qitishni talabalarning u yoki bu shakldagi ta’limiy faoliyati tadqiqotni eslatadigan, talabalar uchun “kashfiyotlar” bilan tugaydigan, ya’ni ular mustaqil holda xulosa chiqaradigan va qandaydir amaliy vazifani hal qiladigan metodlarga asoslanish taklif etiladi. Evristik ta’lim metodlari o‘quv jarayonida talabalar zarur bilimlarni o‘zlari izlanib topishi, ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi, bilim va ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llashi, xulosa chiqarishlariga yo‘naltiradigan pedagogik jarayondir.


“Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash” fanini o‘qitishda o‘rganilayotgan konstruksiyaning yangi qirralarini ko‘ra bilishga o‘rgatadi, mustaqil fikrlashga, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Evristik metodlardan bir nechasi bilan tanishamiz.

“Evristik savollar” metodi. Bu metodda tanlangan hodisa yoki obyekt to‘g‘risida ma’lumot to‘plash maqsadida 7 ta tayanch so‘roq so‘zlari asosida savollar tuzish talab etiladi. Kim? Nima? Qaerda? Qachon? Qanday? Qay tarzda? Nima uchun? so‘roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi “Qachon va qay tarzda?” “Kim va qachon?”, “Kim va nima uchun?” kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi. Maqsad – o‘rganilayotgan kiyim va obyekt konstruksiyasining mazmun-mohiyatiga chuqur kirib borish, talabalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash malakasini oshirishdan iborat. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash faniga oid topshiriqlar: A) “Texnik modellashtirish tushunchasiga oid evristik savollar tuzing”. B) “Badiiy modellashtirish tushunchasiga oid evristik savollar tuzing”.Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanining “Ayollar kiyimlari yoqa chizmasini konstruksiyalash va modellashtirish” mavzusi misolida oladigan bo‘lsak,


I-GOMOGEN GURUH savollari



II-GOMOGEN GURUH savollari



III-GOMOGEN GURUH savollari



“Evristik savollar” metodi orqali talabalarga yangi mavzu yoki o‘tilgan mavzu borasida tushuncha berish oson va qiziqarli bo‘lib hisoblanadi. Ushbu metodni o‘qituvchi guruhni tabaqalashtirgan holda gomogen guruhlar yoki juftliklarga ajratib chiqadi va quyidagi savollarni beradi:

Yoqa so‘zi nimani anglatadi?

Yoqalarning qanday turlari bor?

Yoqali kiyimlar qachon urfga kirgan?

Kimlar yoqali kiyim fasonlarini yaratgan?

Nima uchun pidjak ostki yoqasi ikki chokli bo‘ladi?

Yoqa andazasi qay tarzda gradatsiyalanadi?

Ilk marotaba yoqa qayerda kash qilingan?

kabi so‘roqlari bilan boshlanuvchi savollar tuzish va ularga javob topish jarayonida yangidan-yangi “Qachon va qay tarzda?” “Kim va qachon?”, “Kim va nima uchun?” kabi savollar yuzaga keladi. Bunda eng original, betakror savollar va aniq javoblar yuqori baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.M. Abdullayeva N.S, Gaipova M.A. Gafurova. Tikuv buyumlarini loyihalash, modellash va badiiy bezash. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. “Noshir” nashriyoti. Toshkent-2010.

2. S.S.G'ofurova Tikuv buyumlari texnologiyasi. Darslik. Toshkent-2023 «Fan ziyosi» nashriyoti.
3. Sh. P. Shumkarova, M.N. Rajapova. Tikuv buyumlarini konstruksiyalash. Darslik. Jizzax – 2021.
4. SH.S.Shoyimova, M.K.Xoshimova, SH.R.Mirzayeva, M.M.Qo'ziboyeva. Ta'lim texnologiyalari. Darslik. Toshkent-2020
5. Платья и блузки конструирование система кроя «М.Мюллер и сын». Издательский дом «Эдипресс-Конлига» Москва-2007.
6. Q.T. Olimov, F.H.G'afforov, D.A. Sayfullayeva, A.Yu. Isakov, O.E. Azizov. "Innovatsion ta'lim texnologiyalar".O'quv qo'llanma. T.:- "Lesson Press" MCHJ nashriyoti, 2021.
7. Z.D. Rasulova, Sh.H.Quliyeva, A.R.Jo'rayev. Texnologiya fanini o'qitish metodikasi.O'quv qo'llanma.-Buxoro: 2020
8. D.A. Sayfullyeva. Ixtisoslik fanlarini innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'qitish metodikasi.Monografiya. Buxoro viloyati bosmaxonasi. MChJ nashriyoti B.:-2020-y.
9. M.B.Akobirova, D.A. Sayfullyeva "Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash" fanini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida o'qitishda "Evristik metod"dan foydalanish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy metodik jurnal №5/2024 Aprel. B-342-347
10. Sayfullayeva Dilafro'z Axmadovna. Oliy ta'lim muassasalarida majburiy fanlarni o'qitishda mustaqil harakat va faoliyatga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish. Pedagogik mahorat jurnal №5/2024 B-78-83.
11. M.B.Akobirova. Tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida gomogen guruxlarda talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, Xalqaro ilmiy metodik jurnal №4/2024 Aprel. B-53-59.
12. M.B.Akobirova. Talabalarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan tabaqalashtirilgan yondashuv asosidagi o'qitish jarayonini tashkil qilish. ISSN 2181-7138 Муаллим ҳем узликсиз билимлендири илмий-методикалық журнал 2023 5/1-сан, сентябрь. Нөкис B-104-109.
13. M.B.Akobirova. Texnik ijodkorlik va konstruksiyalash fanini o'qitishda "Evristik metod" ning ahamiyati. Multidisciplinary Scientific Journal May, 2024 Golden Brain ISSN: 2181-4120 Volume 2 | Issue 11. B-110-116.
14. M.B.Akobirova. Ta'limda tabaqalashgan yondoshuv orqali yuqori ta'sirli o'qitish strategiyalari. Innovations in technology and science education, Volume 2 Issue 14,Pages 508-515